

TARBIYA JARAYONINING QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI

Axmedova Dildora Boboqulovna

Shoʻrchi tumani 8-sonli maktabning Boshlangʻich sinf oʻqituvchisi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti
Boshlangʻich taʼlim yoʻnalishi 4-bosqich 5-BT-S-20 guruhi talabasi
E-mail.daxmedova634@gmail.com

Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti oʻqituvchisi, doktorant

Davlatova Shaxnoza Muhammadiyevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti oʻqituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarbiya va tarbiya jarayonining mazmuni, tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari haqida soʻz boradi.*

Shuningdek, maqolada, shaxs ongini shakllantirish metodlari yaʼni, hikoya, tushuntirish, etik suhbat, namuna, oʻz-oʻzini tarbiyalash va oʻz oʻzini tahlil qilish haqida batafsil yoritib berilgan.

***Kalit soʻzlar:** tarbiya, tamoyil, xususiyat, tarbiya qonuniyatlari, tarbiya turlari, tarbiya metodlari, ishontirish, hikoya, tushuntirish, maʼruza, etik suhbat, namuna, oʻz-oʻzini tarbiyalash, oʻz-oʻzini tahlil qilish.*

“Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir “

*Fikr agar yaxshi, tarbiyat topsa,
Xanjar, olmosdan boʻlur oʻtkur.
Fikrning oyinasi olursa zang,
Ruhi ravshan zamir oʻlur benur.*

Abdulla Avloniy fikr tarbiyasi ‘Turkiy guliston yoxud axloq’ asaridan.

Kirish. Tarbiya - shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon bo'lib, pedagogikaning asosiy tushunchalaridan biri. Tarbiya tor ma'noda - pedagogik jarayonda ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati. Bu holatda pedagoglarning tarbiyaviy faoliyati - tarbiyaviy ish deyiladi. Keng ma'noda tarbiya - shaxsga jamiyatning ta'siri etishi ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Bunda tarbiya ijtimoiylashtirish bilan uyg'unlashadi.

Tahlil va natijalar. Tarbiya jarayoning o'ziga xos **xususiyatlari** - maqsadga yo'naltirilganligi, ko'p qirrali jarayon, uzoq muddat davom etishi, uzluksizligi, yaxlitligi, variativligi, natijalarning oldindan aniqlanmasligi, lekin kafolatlanishi zarurligi, ikki tomonlamalik.

Tarbiya qonuniyatlari - ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning xususiyatlari hamda shaxsning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan barqaror aloqalar yig'indisidir.

Tarbiya tamoyillari - tarbiyaviy ishning yo'nalishiga, mazmuniga, metodlari va tashkil etilishiga, tarbiya jarayonidagi ishtirokchilar orasidagi munosabatlarga qo'yiladigan asosiy talablar ifodalanadigan qoidalar.

Tarbiya turlari - aqliy, mehnat, jismoniy tarbiya. Tarbiya va tarbiyalanuvchilar orasidagi munosabatlar uslubiga ko'ra - avtoritar, demokratik, liberal, erkin tarbiya; turli falsafiy kontsepsiyalar bilan bog'liqlikda- pragmatik, aksiologik, jamoaviy, individual tarbiya.

Tarbiya metodlari - tarbiya maqsadiga erishishning yo'li, ya'ni tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullari yig'indisidir. Zamonaviy pedagogikada metodlar o'ziga xos xarakteriga ko'ra - ishontirish, mashq, rag'batlantirish va tanbeh berish ga bo'linadi.

Hozirgi vaqtda o'zida yagona maqsad, mazmun va tartiblilikni aks ettiruvchi obyektiv tarbiya metodlari *uch guruhga* bo'linadi:

6. Shaxs ongini shakllantiruvchi
7. Faoliyatni tashkil etish va xulq atvor tajtajribalarini shakllantirish
8. Xulq-atvorni va faoliyatni rag'batlantirish metodlari.

Metodlar. Shaxs ongini shakllantirish metodlari- o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlar, e'tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'usi va irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari hisoblanadi. Quyidagilar kiradi; hikoya, tushuntirish, izohlash, ma'ruza, etik suhbat, nasihat, o'git, ko'rsatma, munozara, namuna.

Hikoya. O'quvchilar odatda hayot bilan bog'liq bo'lgan hikoyalarni eshitishni hush ko'rishadi. Shuning uchun ularga axloq me'yorlari, xalq o'tmishi, tarix, qahramonlar hayoti va jasorati haqida so'zlab berish mumkin. Hikoya ham, suhbat ham o'quvchilarning yoshiga mos bo'lishi, ularning tilida tushinishi oson bo'lgan adabiy so'zlardan foydalanish kerak.

Suhbat-o'quvchi shaxsini ma'naviy-axloqiy shakllantirishda o'qituvchining jonli so'zi. Eng ta'sir etuvchi metod. Bunda mavzu zo'r tanlanishi kerak.

Tushuntirish-ijtimoiy ongni shakllantirishda eng ko'p ishlatiladi. Vazifasi o'quvchilarni yuksak madaniyatli, milliy g'urur tuyg'usi bilan tarbiyalash.

Namuna. O'quvchilar o'zlariga yaqin kishilarning xulq-atvoriga taqlid qiladilar, bunda ham yahshi ham yomon odatlarni olishi mumkin. Avvalambor o'qituvchining shaxsan o'zi namuna bo'lishi kerak, ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'qituvchining o'zini tutishi, so'zlari, odatlari qiziq. Ota-ona ham namuna bo'lishi kerak.

O'z -o'zini tarbiyalash metodlari- o'z ustida ongli, tartibli ishlashga ehtiyoj paydo bo'lgandagina tarbiya jarayoni samaralidir.

O'z-o'zini tahlil (nazorat) qilish- o'z shaxsi, xatti-xarakati, xulq-atvorini tahlil qilish ya'ni, ijobiylikni ko'paytirish va salbiy odatlarni bartaraf qilish. Bunda o'quvchi yurish-turish, intizomi, ijobiy va salbiy hatti harakatlarini har doim kundalikka yozib boradi.

Xulosa. Demak, tarbiyada irsiy va biologik omillarga ham bog'liq. Xulosa qilib aytganda, faqat bir kishi uchun emas butun insoniyat uchun tarbiya muhimdir. Zero olma tagiga olma tushadi. Jamiyatdagi ijtimoiy talablarga javob beruvchi shaxsni shakllantirish tarbiyaning mazmunini tashkil etadi. Inson hayotidagi har hil illat va

nojuya holatlar tarbiyadagi hatolar tufayli sodir bo'ladi. Shuning uchun tarbiyani go'daklik chog'idayoq singdirishimiz lozim bo'ladi. Olmon faylasufi I. Kant " Inson faqat tarbiya orqali inson bo'ladi, uning qandayligi tarbiyani natijasidir" degan edi o'z asarida. Zero, ta'limni tarbiyadan, tarbiyani ta'limdan ayro qilib bo'lmaydi. Har bir insonning shaxsi, xarakter-xususiyati, dunyoqarashi uning olgan tarbiyasi mahsulidir. Uning jamiyatda egallagan o'rni lavozimi yoki tashqi ko'rinishi bilan emas balki, odob-axloq tarbiyasi bilan o'lchanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B . X . Xodjayev ,, Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" T – 2017, 416 bet.
2. IBODULLAYEVNA, B. S., XUSHBOQOVNA, E. B., & QIZI, X. D. H. (2020). The Terms of Postmodern Characteristics in Daniel Martin Novel of John Fowles. *JournalNX*, 6(05), 98-104.
3. Ibodullayevna, S. B., Rajavaliyeva, A. N., G'anievna, A. Q., & Ergashevna, M. G. (2022). JOHN FOWLES AS AN EXISTENTIALIST WRITER AND REALIST LITERARY TRENDS AND ITS PHILOSOPHICAL-PSYCHOLOGICAL APPROACHES. *湖南大学学报 (自然科学版)*, 49(04).